



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 422 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinova	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarining psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	

Duduqlanish nutq kamchiligini korrektsiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifadni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	
O'zini tarbiyalash (self-development) g'oyasining Ibn Sino ta'limotidagi o'rni	229
Usmanova E'zoza Zokirjonovna	
Оценка динамики физиологических показателей волейболистов 12–16 лет в предсоревновательный и соревновательный периоды.....	234
Умматалиева Шерзода Шерали угли	
Individual sport turlarida sportchilarning natijadorlik kompetensiyasini motivatsion omillar asosida shakllantirish.....	239
Baratov Nasriddin Karshibayevich	
O'smirlarda internetdan ortiqcha foydalanishning psixologik oqibatlarini	243
Fayziyeva Nodira Sobirovna	
Transakt analiz: shaxslararo muloqotni tahlil qilishning nazariy va amaliy asoslari	247
Nilufar Sayfidinovna Sangirova	
Inklyuziv ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)	252
Abdug'aniyev Abdurauf Abdumannonovich	
O'zbek milliy kurashining tarixiy rivojlanish bosqichlari va uning yoshlar tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati.....	257
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Almardanov Xasan Asqarovich	
Belbog'li kurashning shakllanishi va rivojlanish tarixi: jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni va metodik imkoniyatlari	261
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqizilov Muxammadbek Sherali o'gli	



Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	265
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqobilov Jamshid G'ulomovich</i>	
Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	270
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Nurullayev Fazliddin Murodulla o'gli</i>	
Raqamli muhitda shaxs xulq-atvori dinamikasi (bolalik va o'smirlilik misolida)	275
<i>Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o'g'li</i>	
O'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishning pedagogik va psixologik asoslari	278
<i>Suvanova Baxtigul Baxridinovna</i>	
Xalqaro tajriba asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	283
<i>Azimov I. T., Mirzayeva N. I.</i>	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishda didaktik vositalardan foydalanish	288
<i>Ziyaboyeva Sevara Saydullayevna</i>	
Yuqori malakali o'rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanish dinamikasi	292
<i>Nazarov Nuriddin Baxranovich</i>	
Maktab direktorining partisipativ boshqaruv faoliyatida qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirokchilarning roli	297
<i>Jabborova Yulduzxon Hasan qizi</i>	
Tibbiyotda nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish usullari	301
<i>Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna</i>	
Ichki kasalliklarni tashxislashda klinik fikrlashning o'rni	304
<i>Tilavova Muqaddas, Hasanova Munisa, Mamatqulova Fayzo, Hakimova Xonbuvi Hakimovna</i>	
Транснациональные компании и проблема суверенитета национального государства	307
<i>Ф. Равшанов, Л. Сохибова</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	311
<i>Muhammadiyeva Manzura Maratovna, Musulmonova Sabrina Akmal qizi</i>	
Texnologik ta'limda xorijiy tajriba	316
<i>Lochinbek Abdirasulov</i>	
Talabalarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	319
<i>Saffarova Mohidil Axmadovna, Mustafayeva Feruza Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslaridagi asosiy resurslari: "ona tili" darsligi, mashq daftari, o'qituvchi kitobi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida	324
<i>Soatova Hilola Shuhrat qizi</i>	
Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida	328
<i>R. D. Mustayev, H. F. Abduvositov</i>	
Русскоязычная литература Узбекистана современного периода: проблематика, поэтика и художественный анализ	332
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri	335
<i>Toshpo'latova O'g'iloy Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish jarayonida targeting yondashuvining pedagogik nazariy asoslari	339
<i>D. G. Umnov</i>	
Ona tili darslarini ikkinchi til tamoyillari asosida tashkil etish masalalari	344
<i>Maxkamova Guluzroxon Abdumutalibovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni pedagogik jihatlardan tashkil etishning nazariy va amaliy aspektlari	347
<i>Mahkamov Mahammadjon Dadajonovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars jarayonini takomillashtirish metodikasi	351
<i>Muhammadjonova Durdonaxon Bahromjon qizi</i>	
Tarix darslarini modellashtirishda pedagogik metodlar tasnifi va ularning samaradorligi	354
<i>Ikrom Qodirov</i>	



Hadassah gospital maktabi modelining o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik samaradorligi va uni O'zbekiston gospital maktablariga tatbiq etishning ahamiyati	357
<i>Abdullayev Aziz Habibullayevich, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li, Alimova Dono Abbosxanovna</i>	
Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....	361
<i>Amirxo'jayev Shukurjon Qurbonovich, Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li</i>	
Neyropedagogik yondashuv asosida o'quvchilarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari	364
<i>Babakulova Dilnoza Ramazonovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda nutqiy nuqsonlarning oldini olish va o'quvchilarning talaffuz madaniyatini shakllantirish metodikasi.....	367
<i>Baxtiyorova Nastarin Baxriddinovna, Daminova Dilbar Melimurodovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga qiziqishini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari.....	370
<i>G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Raxmatova Shaxlo Mansurovna</i>	
Ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xosligi	373
<i>Jo'raboieva Turg'unoy Ikromjon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvokognitiv kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimi.....	377
<i>Kozimova Sadoqat</i>	
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish orqali ekologik savodxonlikni shakllantirishning pedagogik asoslari	380
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Oilaviy munosabatlarda manipulyativ muloqot indikatsiyasi: psixologik tahlil va eksperimental natijalar.....	383
<i>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni.....	386
<i>Nurulloyev Firuz No'monjonovich</i>	
Talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarixiy-pedagogik asoslari (ma'rifatparvar mutafakkirlar merosi misolida).....	390
<i>Sabirov Kaxramon Bektursun o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi 5-6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish qobiliyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.....	393
<i>Tillayeva Vasila O'ktam qizi</i>	
Kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik va didaktik mazmuni	398
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarini kinematik va kinetik modellashtirish	402
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Oliy ta'limda ishga doir muloqot asoslari fanini o'qitish orqali talabalarining og'zaki fikrlash va nutq faoliyatini rivojlantirish	406
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Роль онлайн-платформ и образовательных сервисов в формировании ответственности студентов.....	409
<i>Гуламов Жасур Баходирович</i>	
Изучение изменений полярного переключения негативных и позитивных эмоций средового воздействия в процессе развития/реабилитации механизмов эмпатии	413
<i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>	



BO'LAJAK TARBIYACHILARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ISTE'MOL MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA TARGETING YONDASHUVINING PEDAGOGIK NAZARIY ASOSLARI

D. G. Umnov

Andijon davlat chet tillar instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotatsiya: Yangi O'zbekiston konsepsiyasi sharoitida maktabgacha ta'lim tizimida targeting (maqsadli reklama)ning bolalar ongiga ta'siri hamda unga qarshi pedagogik yondashuvlar muammosi ilmiy-nazariy asosda tahlil etiladi. Tadqiqot maqsadi – bo'lajak tarbiyachilarning targeting ta'sirini aniqlash, baholash va bolalarda ongli iste'mol madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik modul hamda metodik tamoyillarni ishlab chiqishdan iborat. Metodologiya sifatida tizimli adabiyotlar tahlili, ta'lim siyosati hujjatlari tahlili va konseptual model ishlab chiqish usullari qo'llanildi. Natijada nazariy asos, diagnostika va monitoring, o'yinli hamda loyihaviy intervensiyalar, oila va jamiyat bilan hamkorlik, shuningdek, baholash mexanizmlarini o'z ichiga olgan pedagogik model taklif etildi. Tadqiqot natijalari ta'lim siyosati va amaliyot uchun tavsiyalar berish bilan birga, mediapedagogik yondashuvlarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari darajasida joriy etish yo'nalishlarini belgilaydi.

Kalit so'zlar: targeting, iste'mol madaniyati, mediata'lim, mediapedagogika, maktabgacha ta'lim, Yangi O'zbekiston konsepsiyasi, bo'lajak tarbiyachi.

Abstract: Within the framework of the New Uzbekistan concept, the impact of targeting (targeted advertising) on children's cognition in preschool education, as well as pedagogical approaches to counteracting this influence, is analyzed on a scientific and theoretical basis. The aim of the study is to identify and assess the effects of targeting and to develop a pedagogical module and methodological principles aimed at fostering a culture of conscious consumption in children. The methodology includes a systematic literature review, analysis of educational policy documents, and conceptual model development methods. As a result, a pedagogical model was proposed, comprising a theoretical framework, diagnostics and monitoring, game-based and project-based interventions, family and community collaboration, and evaluation mechanisms. The findings provide recommendations for educational policy and practice and outline pathways for implementing media pedagogical approaches at the level of preschool education institutions.

Key words: targeting, consumer culture, media education, media pedagogy, preschool education, New Uzbekistan concept, future educator.

Аннотация: В условиях концепции Нового Узбекистана на научно-теоретической основе анализируется влияние таргетинга (целевой рекламы) на сознание детей в системе дошкольного образования, а также педагогические подходы к противодействию данному воздействию. Цель исследования – выявление и оценка влияния таргетинга, а также разработка педагогического модуля и методических принципов, направленных на формирование у детей культуры осознанного потребления. В качестве методологии использованы системный анализ научной литературы, анализ документов образовательной политики и методы разработки концептуальных моделей. В результате предложена педагогическая модель, включающая теоретическую основу, диагностику и мониторинг, игровые и проектные интервенции, сотрудничество с семьёй и обществом, а также механизмы оценки. Полученные результаты формируют практические рекомендации и определяют пути внедрения медиапедагогических подходов на уровне дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова: таргетинг, культура потребления, медиапедагогика, медиаобразование, дошкольное образование, концепция Нового Узбекистана, будущий педагог.

KIRISH

Yangi O'zbekiston konsepsiyasi doirasida ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish masalalari ilmiy va amaliy jihatdan ustuvor ahamiyat kasb etadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan murojaatnomasida 2026-yilni "Barcha sohalarda tub burilish yili" deb e'lon qilib, jumladan, farzandlarimiz uchun sifatli ta'lim-tarbiya sharoitlarini yaratishning alohida o'rin tutishini ta'kidladi^[1]. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim tizimini ilmiy asosda, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, inkluzivlik va pedagog xodimlarning malakasini oshirish orqali keng qamrovli isloh etish zarur; bu esa kelajak avlodning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimining yangilanish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi kunda raqamli va media-muhitdagi ta'sirlarning ko'lami tobora ortib bormoqda. Bu holat natijasida bolalar erta yoshdanoq turli brendlar va reklama ta'siriga tushib qolmoqda. Natijada ularning iste'mol odatlarida salbiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, bu esa impulsiv harakatlar va oilaviy xarid qarorlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan ham hozirgi paytda maktabgacha ta'lim muassasalarida bola shaxsiga yo'naltirilgan, mediata'sirlarga qarshi pedagogik vositalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish masalasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishda xalqaro tajribalardan foydalanish ham juda muhimdir. Xususan, Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlardagi eng yaxshi amaliyotlarni o'rganib chiqib, ularni mahalliy sharoitimizga moslashtirish zarurati mavjud.

Dunyo bo'ylab maktabgacha ta'lim sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu sohada yetakchi mamlakatlar qatorida Yaponiyaning xizmatlari alohida e'tiborga loyiq. Yaponiyada maktabgacha ta'lim tizimining asosiy tamoyillari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, ular orasida jamoaviy hamkorlik ruhini shakllantirish, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rag'batlantirish kabilar hisoblanadi. Buning natijasida yapon bolalarining o'ziga xos tafakkur qobiliyati va mustaqil fikrlash mahoratlari yuksak darajada rivojlanadi. Shuningdek, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda ham ushbu sohaga katta e'tibor qaratiladi. Masalan, Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'lim tizimida bolalar bilan muloqot qilishga asoslangan o'qitish uslublaridan foydalaniladi. Fransiya esa boshlang'ich ta'lim muassasalari bolalarining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lib, ularning iste'dodlarini maksimal darajada ochishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribani o'rganish va undan foydalanish o'zbekistonlik pedagoglarga yangi g'oyalar va yondashuvlar keltirish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari ham bunday yutuqlarni o'rganib, o'z faoliyatlariga tatbiq etishga harakat qilmoqda.

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida bolalar ommaviy axborot vositalarining ta'siri ostida bo'lmoqda. Ushbu vaziyatda o'qituvchilar va ota-onalar uchun asosiy masala – bolalarni onlayn medialardan kelib chiqadigan tahdidlardan himoya qilish va ularga oqilona ma'lumot qabul qilishni o'rgatishdir.

Bu maqsadda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Bolalarni onlayn xavfsizlikka oid bilim va ko'nikmalar berish – maxsus kurslar, seminarlar tashkil etish orqali ota-onalar va tarbiyachilarga zamonaviy onlayn tahdidlar haqida ma'lumotlar yetkazish.
2. Mediaetiket qoidalarini o'rgatish – ijtimoiy tarmoqlar va boshqa onlayn platformalardagi xulq-atvor qoidalari bo'yicha tushunchalar shakllantirish.
3. O'quvchilarga raqamli dunyoni to'g'ri tushunish va tahlil qilish ko'nikmalari berish – o'quvchilar yordamida ularning kundalik o'rgangan axborot manbalaridan mantiqan foydalana olishlari uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.
4. Virtual muhitdagi munosabatlarni boshqarishni o'rgatish – bolalarining do'st tanlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va shaxsiy chegaralarni belgilash ko'nikmalarini oshirish.
5. Ota-onalar bilan hamkorlikda bolalar manfaatlarini himoya qiluvchi hamkorlik tizimini yaratish – virtual hayotda yuzaga keladigan muammolarni erta aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan o'zaro muloqot o'rnatish.
6. Mediabadiiy mashg'ulotlarning amaliyotga tatbiq etilishi – real vaziyatlarda bo'lgani kabi onlayn muhitda ham o'zini qanday tutish kerakligini o'rgatish.^[10]

Shu tariqa, mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilsa, bolalar nafaqat onlayn xavf-xatarlardan himoyalangan bo'ladi, balki ularni mustaqil ravishda boshqarishga qodir bo'ladilar. Bu esa jamiyatimiz uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan barqarorlik va xavfsizlikning muhim omili hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iste'mol madaniyati va uning shakllanish jarayonlari zamonaviy ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarda muhim yo'nalish sifatida qaraladi. R. Belk tadqiqotlarida iste'mol jarayoni shaxsning identifikatsiyasi va ijtimoiy mavqei bilan bevosita bog'liqligi asoslab beriladi. Unga ko'ra, inson egalik qilayotgan predmetlar uning "kengaytirilgan o'zi" sifatida namoyon bo'ladi va bu jarayon bolalikdan boshlab shakllanadi. D. Holt esa iste'molni madaniy fenomen sifatida talqin qilib, brendlar jamiyatda ma'no va qadriyatlarni shakllantiruvchi vosita ekanligini ta'kidlaydi, bu esa targeting orqali bolalar ongiga ta'sir qilish mexanizmlarini tushunishda muhim nazariy asos yaratadi.

Psixologik va pedagogik yondashuvlar nuqtayi nazaridan J. Piaget va L. Vygotskiy tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Piaget bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini asoslab, ularning qaror qabul qilish va tanlash jarayonlari yosh xususiyatlariga bog'liqligini ko'rsatadi. Vygotskiy esa ijtimoiy-madaniy muhitning ta'lim va tarbiyadagi rolini ochib berib, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot orqali bilim va qadriyatlar shakllanishini asoslaydi. Ushbu nazariyalar maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirishda mediapedagogik vositalardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda J. Bruner va D. Kolb tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar ham muhim hisoblanadi. Bruner o'quvchining faol ishtirokiga asoslangan ta'lim modelini taklif etib, bilimni mustaqil kashf etish jarayonini ustuvor deb hisoblaydi. Kolb esa tajribaviy o'rganish nazariyasi orqali bilimlar tajriba, kuzatuv, umumlashtirish va amaliy qo'llash bosqichlarida shakllanishini asoslaydi. Bu yondashuvlar o'yin va loyiha faoliyatiga asoslangan metodlar orqali bolalarda ongli iste'mol ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. S. Papert esa axborot texnologiyalarining ta'limdagi rolini yoritib, raqamli muhit bolalarning fikrlash va qaror qabul qilish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Ijtimoiy-falsafiy va amaliy tadqiqotlar doirasida G. Schulze iste'mol jamiyati konsepsiyasini ishlab chiqib, zamonaviy jamiyatda iste'molning madaniy xususiyatlarini ochib beradi. A. Maslow esa ehtiyojlar ierarxiyasi orqali inson xulq-atvori va iste'mol motivlarini tushuntiradi. Mahalliy tadqiqotchi D. G. Umnov maktabgacha yoshdagi bolalarda marketing ta'siri va iste'mol madaniyati shakllanishini o'rganib, targetingning bolalar ongiga ta'sir mexanizmlarini tahlil qiladi. Ushbu ilmiy qarashlar yig'indisi targeting yondashuvining pedagogik nazariy asoslarini aniqlash hamda maktabgacha ta'lim tizimida mediapedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy zamin yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil qilingan ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarning natijalari kelajakda tarbiyachilar tayyorlash sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyati shakllanish jarayonidagi targeting yondashuvining pedagogik-nazariy asoslari haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu yondashuv hozirgi zamon talablariga mos keladigan hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga oladigan uslubiy tavsiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli bugungi kunda tarbiya va targeting sohasidagi yetakchi mutaxassislar qator innovatsion pedagogik yondashuvlarni taklif qilmoqda. Bolalardagi iste'mol madaniyatini shakllantirish jarayoni quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Douglas Holt va John Sherryning nuqtayi nazariga ko'ra, iste'molni tushunish faqat bozor jarayonlariga bog'liq emas, balki jamiyatning madaniy va tarixiy jihatlaridan ham kelib chiqadi ^[4]. Ular iste'mol harakatlarini asosan falsafiy, ijtimoiy va iqtisodiy kontekstlarda tahlil qiladilar. Masalan, moddiy iste'mol buyumlari insonning identifikatsiyasini ifodalash vositasi sifatida qaraladi. Ularning qarashlariga ko'ra, iste'mol faoliyati shaxsning ijtimoiy mavqeini namoyon etadi hamda uning shaxsiy qadriyatlari bilan bog'liqdir. Bu yerda iste'molning ma'naviy ahamiyat kasb etishi qayd etiladi.

Russell Belk fikricha, marketing sohasidagi tadqiqotchilar empirik yondashuvdan foydalanib, turli tadqiqot usullarini qo'llaydilar ^[2]. Bu usullar qatoriga kuzatuv, tajriba o'tkazish va so'rovlar kiradi. Bunday tadqiqotlar asosida reklama ta'sirining kuchi, ota-onalarning xarid qilishdagi o'rni hamda bolalar va yoshlarning tovar va xizmatlarga munosabati o'rganiladi. Empirik dalillar mahsulot tanlash mexanizmlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Gerhard Schulze nuqtayi nazariga ko'ra, loyihaviy yondashuv ta'lim jarayonida qo'llaniladigan muhim metod hisoblanadi ^[9]. Ushbu metodda o'quvchilarga turli loyihalarni tuzish va amalga oshirish orqali zarur ma'lumot beriladi. Shu tariqa ular o'z ehtiyojlariga mos ravishda oziq-ovqat mahsulotlarini, o'yinchoqlarni va kiyimlarni to'g'ri tanlashni o'rganadilar. Loyihalarda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlar hisobga olinadi.

Jan Piaget fikricha, o'yin texnologiyalari ta'limda muhim o'rin tutadi ^[8]. U bolaning psixologik rivojlanish bosqichlarini o'rganadi va ularni to'laqonli rivojlantirish uchun o'ziga xos o'yin usullarini tavsiya qiladi. Rolli o'yinlar orqali o'quvchilar o'z qarorlarini mantiqan asoslashga o'rgatiladi. Bunda inson faoliyati turlari va mahsulot tanlash jarayonlaridagi tanqidiy fikrlash rivojlanadi.



Seymur Papert nuqtayi nazariga ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim tizimida tobora keng tarqalib bormoqda ^[7]. Uning fikricha, multimedia vositalari iste'mol madaniyatini shakllantirishga katta hissa qo'shadi. Multimediyali materiallar orqali talabalar ortiqcha iste'molning salbiy oqibatlarini, ekologik turmush tarzining ahamiyatini va sog'lom ovqatlanishning afzalliklarini tushunishlari mumkin bo'ladi.

Lev Vygotskiy fikricha, psixologiyaning ijtimoiy-madaniy nazariyasi ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi ^[11]. Uning qarashlariga ko'ra, ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan beriladigan maslahatlar farzandlarning iste'dod va qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Ushbu maslahatlarda iste'mol madaniyatiga oid asosiy qoidalar tushuntiriladi va ularning kundalik hayotda qo'llanilishi o'rgatiladi.

Abraham Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga ko'ra, inson o'z ehtiyojlarini ularning muhimlik darajasiga qarab qondirishi lozim ^[6]. Maslowning fikricha, asosiy ehtiyojlarini qondirgan inson o'z holatini yanada yaxshilashga intiladi.

David Kolb ta'lim nazariyasi doirasida o'rganishni to'rtta bosqichda amalga oshiradi: tajriba, kuzatuv, umumlashtirish va amalda qo'llash ^[5]. Uning yondashuviga muvofiq, jamoaviy tadbirlar iste'mol madaniyatini shakllantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bayramlar orqali ma'lum bir mavzu atrofida jamoatchilik e'tiborini jalb etish mumkin. Ta'lim, o'yin-kulgi va suhbatlar doirasida yangi odatlarni shakllantirish osonlashadi.

Jerome Bruner ta'lim nazariyasida o'quvchining faol ishtirokiga muhim o'rin beradi ^[3]. Unga ko'ra, talabalarning mustaqil ishlari bilimlarni mustahkamlash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limning bunday uslubi talabalarni nafaqat nazariy bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga, balki ularni amaliyotga tatbiq etishga ham undaydi.

Ushbu metodlar bolalar ongida tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, ularning tanlov jarayonida oqibatlarni anglash va atrof-muhitga javobgar munosabat bilan qarash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa kelajakdagi tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini yanada oshirish va har bir bolaning shaxs sifatida kamol topishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Mazkur olimlarning nazariyalari, metod va texnologiyalari nafaqat bolalar ongida tanqidiy fikrlashni rivojlantiribgina qolmay, balki ularni kelajakda mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlaydi. Bolalar iste'molchilik munosabatlaridan kelib chiqadigan oqibatlarni chuqur anglay boshlaydilar hamda atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xatti-harakatlarda faol ishtirok etadilar. Natijada, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi sezilarli darajada oshadi, chunki ular nafaqat ta'limning zamonaviy yondashuvlarini o'zlashtiradilar, balki ulardan maqsadli foydalanish ko'nikmasiga ham ega bo'ladilar.

Bundan tashqari, ushbu metodlar maktabgacha ta'lim tizimida o'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi va quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Fikrlashga asoslangan yondashuv: bolalar atrofda muhit va resurslardan oqilona foydalanishni o'rganadilar, bu esa kelajakda mustahkam shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirishga yordam beradi.
2. Ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish: ta'lim jarayonida bolalar insonparvarlik, jamiyatga foydali xatti-harakatlarni o'zlashtiradilar, natijada ularda yuksak axloqiy me'yorlar shakllanadi.
3. Rivojlangan ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash: ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuvlar joriy etilishi tufayli bolalar o'z iste'dod va qobiliyatlarini to'liq namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.
4. Mustaqillikka undash: bolalar ehtiyojlarini aniq va mos ravishda ifodalashni o'rganadilar, bu esa ularni o'z-o'zini boshqarishga yo'naltiradi.

Ushbu pedagogik yondashuvlarni qo'llash natijasida bo'lajak tarbiyachilar oddiy o'qituvchi bo'lishdan ko'ra kengroq ma'noda o'qituvchi-tarbiyachi vazifasini bajaradilar. Ular bilan birga har bir bola o'z qadr-qimmatini his etadi, o'zini erkin ifoda eta oladi va o'ziga ishonadi. Natijada kelajak avlod vakillari shaxs sifatida yetuk rivojlanadi va ularning yetakchilik fazilatlarini yuqori darajaga ko'tarilishi kutiladi. Shu tariqa, mazkur yondashuv pedagogik jarayonga sifat jihatidan yangi ruh bag'ishlaydi, har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanishi uchun maqbul sharoit yaratadi hamda uning inson sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda targeting ta'siri va unga qarshi mediapedagogik yondashuvlarning integratsiyasi zamonaviy ta'lim siyosati talablariga mos keladi hamda amaliy samaradorlikka ega bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'limning ilmiy asoslangan islohoti – faqat infratuzilma yoki moliyaviy masala emas, balki pedagogik va metodologik yangilanishni ham talab qiladi. Nazariy jihatdan ko'rib chiqilgan konsepsiyalar (Piaget, Vygotskiy, Bruner, Papert va boshqalar) pedagogik hamda kognitiv jarayonlarni muvofiqlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Empirik jihatdan mazkur maqolada konseptual xaritada diagnostika va monitoringga alohida urg'u berilgan. Kontent-analiz va o'yin-eksperiment protokollari targ'ibotning manipulyativ elementlarini aniqlashga yordam beradi hamda tarbiyachilarning mediatahlil ko'nikmalarini shakllantiradi.



Biroq amaliy tatbiq bosqichida bir qator cheklovlar kuzatiladi: pedagoglarning mediapedagogik tayyorgarligi yetarli emasligi, muassasalar infratuzilmasining farqliligi hamda ota-onalar ongining turlicha darajada shakllanganligi. Shu bilan birga, reklama ta'sirini tartibga soluvchi huquqiy bazani kuchaytirish va mediasozlik bilan bog'liq reglamentlarni muvofiqlashtirish zarur.

Amaliy tavsiyalar quyidagicha: birinchi navbatda, pedagoglar uchun mediapedagogika bo'yicha majburiy malaka oshirish kurslarini joriy etish; ikkinchidan, MTTlarda kontent-analiz va diagnostika uchun oddiy hamda standartlashtirilgan vositalarni ishlab chiqish; uchinchidan, ota-onalar bilan hamkorlik mexanizmlarini – mediadnevniklar va oilaviy treninglar orqali kengaytirish lozim. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlarni interaktiv ilovalar, o'yin asosida o'qitish va loyiha faoliyati modullarigacha bo'lgan dasturlar bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi O'zbekiston sharoitida maktabgacha ta'lim tizimini ilmiy asosda yangilash hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb va strategik ahamiyat kasb etadi. Raqamli va media-muhitning kengayishi bolalar hayotida reklama va brend ta'sirining erta bosqichlarda mustahkamlanishiga olib kelayotganini inobatga olsak, targetingga qarshi kompleks mediapedagogik choralar institutsional darajada ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi lozim. Shu munosabat bilan taklif etilgan pedagogik modul – nazariy baza, diagnostika va monitoring, o'yinli hamda loyihaviy intervensiyalar, oila va jamiyat bilan hamkorlik hamda baholash mexanizmlarini o'z ichiga olgan holda – tizimli yechim sifatida samarali bo'lishi mumkin.

Nazariy jihatdan yanada mustahkam poydevor yaratish uchun klassik va zamonaviy pedagogik nazariyalar (Piaget, Vygotskiy, Bruner, Papert va boshqalar) sintezi muhim ahamiyatga ega. Mazkur nazariy qarashlar mediata'limning yoshga mos strategiyalarini ishlab chiqishda, o'yin va loyiha asosidagi metodlarni tatbiq etishda hamda interaktiv va kreativ mashg'ulotlar orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Empirik tadqiqotlar (kontent-analiz, o'yin-eksperimentlar, pre/post o'lchovlar) esa intervensiyalar samaradorligini aniq baholashga hamda pedagogik amaliyotni dalillarga asoslashga imkon beradi.

Umuman olganda, targetingga qarshi mediapedagogik yondashuv maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, bolalarda ongli iste'mol madaniyatini shakllantirish va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Modulning muvaffaqiyati esa nazariy asoslar, pedagoglarning malakasi va keng jamoatchilik bilan hamkorlik darajasiga bog'liq bo'lib, uning tizimli joriy etilishi milliy maqsadlar – kelajak avlodni barkamol va mas'uliyatli fuqarolar etib tarbiyalash – yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. Belk, R. W. Possessions and the Extended Self // Journal of Consumer Research, 15(2), 1988. – 139–168-b.
3. Bruner, J. S. Toward a Theory of Instruction. – Cambridge, MA: Belknap Press of Harvard University Press.
4. Holt, D. B. How Brands Become Icons: The Principles of Cultural Branding. – Boston, MA: Harvard Business School Press, 2004.
5. Kolb, D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
6. Maslow, A. H. A Theory of Human Motivation // Psychological Review, 50(4). – 370–396-b.
7. Papert, S. Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. – New York: Basic Books.
8. Piaget, J. Play, Dreams and Imitation in Childhood. – London: Routledge & Kegan Paul.
9. Schulze, G. Die Erlebnisgesellschaft: Kultursoziologie der Gegenwart. – Frankfurt am Main: Campus Verlag.
10. Умнов Д. Г. Влияние маркетинга на потребительскую культуру детей дошкольного возраста // Вестник науки и образования, 2021. №16-1.
11. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.